

NAZAR ESHONQULNING ILM - MA'RIFAT, KITOBXONLIKKA DOIR QARASHLARI

Feruza Burxanova,
TDPU dotsenti, PhD.

Annotatsiya. Mazkur maqolada taniqli o'zbek ijodkori Nazar Eshonqulning adabiy-estetik, ilm-ma'rifat, kitobxonlikka doir adabiy-estetik qarashlari tadqiq etilgan. Maqolada san'at, adabiyot uning inson hayotidagi o'rni, ijod, uning bosqichlari, ilhom, ijodkor shaxsi kabi badiiy ijod psixologiyasiga oid qarashlar; jahon va o'zbek adabiyoti va san'ati namoyondalarining asarlari va shaxsiyatidagi mushtarakliklar, tahlillar, adabiy etyudlar muallifning teran falsafiy mushohadalari, chuqur ilmiy-nazariy tahlillari vositasida ochib berilgani yoritilgan.

Kalit so'zlar: Adabiy-estetik tafakkur, Nazar Eshonqul, "Mendan "men" gacha", "Ijod falsafasi", "Kitob bandasi", jahon adiblari, muallif, etyud.

Аннотация. В данной статье изучаются литературно-эстетические взгляды известного узбекского художника Назара Эшонгула, его литературно-эстетические взгляды на науку, просвещение, чтение. В статье изучаются искусство, литература, ее место в жизни человека, творчестве. его этапы, вдохновение, авторские взгляды на психологию художественного творчества как личност, сходство в творчестве и личностях представителей мировой и узбекской литературы и искусства, анализ литературных этюдов, раскрываемых посредством глубоких философских наблюдений, глубокого научно-теоретического анализа автора.

Ключевые слова: Литературно-эстетическое мышление, Назар Эшанкул, "От меня к «Я»", "Философия творчества", "Слуга книги", мировые писатели, автор, этюд.

Annotation. In this article, the literary-aesthetic views of the well-known Uzbek artist Nazar Eshonqul, his literary-aesthetic views on science, enlightenment, and reading are studied. In the article, art, literature, its place in human life, creativity, its stages, inspiration, the creator views on the psychology of artistic creativity such as personality, commonalities in the works and personalities of the representatives of world and Uzbek literature and art, analysis, literary etudes revealed through deep philosophical observations, deep scientific and theoretical analyzes of the author.

Keywords: Literary-aesthetic thinking, Nazar Eshanqul, "From Me to "I"", "Philosophy of Creativity", "Servant of the Book", world writers, author, etude.

Nazar Eshonqulning adabiy jamoatchilikka nafaqat nasriy asarlari balki adabiy-estetik qarashlari jamlangan "Mendan "men" gacha", "Ijod falsafasi" nomli adabiy-tanqidiy kitoblari ham ma'lum. Muallifning "Kitob bandasi" nomli asarini adabiy-estetik qarashlari jamlangan asarlar sirasiga kiritish mumkin. Kitob kompozitsiyasi "Kitobdan kitobgacha", "Botin bilan yuzma-yuz", "Kitob bandalari", "Sahifadan tushib qolgan fikrlar" kabi boblardan tashkil topgan. Asarning kirish qismiga muallif ramziy ma'noda "Ostona so'z" deb nom bergan. Ayni shu qismda muallif mazkur kitobni yozishdan maqsadi ko'ngli va dunyoqarashi beg'ubor yosh-avlodni kitobsevarlikka undash va shu orqali inson va uning ko'ngil olamini pok saqlash, ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashishga chorlash ekanini bayon qiladi. Muallif

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

insoniyatning hamma davrlar uchun dolzarb ahamiyat kasb etib kelayotgan Inson mohiyatini va uning ko‘ngilini qutqarish kerakligini uqtiradi. Darhaqiqat, insonning ko‘ngil olamidani uzoqlashtirish, his-tuyg‘u, zavqdan mahrum etish, texnokratlashtirish, “robotga” aylantirish, qalb o‘limiga, o‘zligidan ayrishga olib keladi. N.Eshonqul XXI asrning ko‘ngilni o‘ldirishga qaratilgan xuruj va tahdidlaridan, nafsning oqibatlaridan kitobxonni ogoh etadi. Bu fojiani asosiy sababi sifatida insoniyatni kitobdan, adabiyotdan, mutola zavqidan uzoqlashganida deb biladi. “Kitobdan, uning asosi bo‘lgan adabiyotdan uzoqlashishi – insonning o‘zligidan, mohiyatidan, uni bog‘lab turuvchi rishtalardan, ajdodlar xotirasidan, sabog‘idan, asriy hikmatlardan, Ko‘ngildan, odamiylikdan uzoqlashish degani”¹. Muallif insonparvarlikning mohiyatini kitobdan, san‘at va adabiyotdan anglash mumkinligini bayon etib, mutolaa muolajalaridan, mutolaa “vaksinasi”ni olishga, shundagina ma’naviyatga tahdid etuvchi turli xil “epidemiya” va xurujlarga dosh berish mumkinligini yozadi. Muallifning ushbu chorlovlari uning insonparvarligi, millatparvarligidan dalolat beradi. Zero, texnokratlashgan odam his-tuyg‘udan, mehr-oqibat, qadriyatlardan yiroq “robot”, mutantga aylanishi mumkinligi muallifni tashvishga soladi. Aslida ham insonni robotlashib borishi (ko‘ngilni toshga aylanib borishi his-tuyg‘usiz, zavq va ijodkorlikning so‘nishi, fikrsizlikning urchishi, iste’molchilik, xudbinlik psixologiyasining avj olishi, “o‘zim chiqqan tepa omon bo‘lsin” tarzida hayot kechirish, hamjihatlik, insoniylikning darz ketishi dolzarb ma’naviy muammo, ma’naviy tanazzul hisoblanadi. Bu muammolarning yechimi esa ma’rifatda, hayotning mohiyatini anglab yetishdadir. Bunday muammolarning yechimi esa insoning o‘z qo‘lidadir. Bunda mutolaaning ahamiyati katta. Zero, adabiyot va san‘at insonning ko‘ngil olamini poklovchi, ma’naviyatini yuksaltiruvchi, hayot mohiyatini anglatuvchi muhim omil sanaladi. Muallif kitobning “Kitobiy mulohazalar” deb nomlangan qismida san‘at va tafakkur, san‘atdagi go‘zallik va tafakkur uyg‘unligiga e’tibor qaratib, Navoiy ijodidagi yuksak tafakkur va badiiyat kuchining siri ham shunda deb hisoblaydi. Navoiy ijodidagi teran falsafiy asos va cheksiz taxayyul mushtaraklik kasb etib, yaxlit ma’noni, yuksak badiiyatni vujudga keltirgani qayd etiladi. Muallif ijodkorlikni ilohiyat bilan bog‘lar ekan, ijodni mukammallikka intilish, Yaratganning yaratganlariga taqlid qilish, inson va uning tafakkurini bunyodkorlikka hozirlash, go‘zallikni his qildirishdek muhim jihatlariga e’tibor qaratadi. N.Eshonqul ijod va ijodkorlikni fikrsizlik, ma’naviy tanazzul, “texnokratlashish”dan saqlovchi muhim omil, asl ma’noni o‘qiy olish va boshqalarga yyetkaza olish deb biladi. Muallifning bu fikrlari asosli, zero adabiyot va san‘at

¹ Eshonqul N. Kitob bandasi .– Toshkent: Akademnashr, 2022. – B: 3.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

azaldan insoniyatni komillikka yyetaklovchi, his-tuyg‘ulari, ko‘ngil olamini go‘zallashtiruvchi qudratli ta’sir kuchiga ega omildir.

N.Eshonqul buyuk ispan musavviri Salvador Dalining (syurrealizm yo‘sinda) noan’anaviy tarzda insoniyatni fojialardan ogoh etuvchi, ruhiyat va tafakkur tasviriga asoslangan kartinalarini F.Kafka, A.Kamyu asarlari bilan qiyoslaydi. Muallif XX asr insonni urush, istilo iskanjasida o‘tgan hayoti, bo‘shliq qaridagi majruh ruhi, ma’naviy tanazzuli tasviri san’at va adabiyotning tasvir obyektiga aylangani bu holat musavvir va yozuvchilar ijodida mazmuniy-g‘oyaviy mushtaraklik kasb etganini yozadi. Bu holatni musavvir bo‘yoq, yozuvchilar so‘z orqali tasvirlaganini ta’kidlaydi. Shu mulohazalar asosida G‘arb va Sharq ijodkorlari asarlaridagi farqli va o‘xshash jihatlar bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bayon etadi. Muallifning nazdida, “G‘arb ijodkorlari, Sharq ijodkorlaridan farqli o‘laroq, ma’lum an’analarini o‘zgartirish va singdirish evaziga o‘z badiiy olamlarini yaratadilar”². Nazarimizda, muallif ushbu fikri bilan G‘arb adabiyoti va san’atida yuzaga kelgan ko‘pgina oqimlarni nazarda tutmoqda. Ma’lumki, XX asr boshlarigacha Sharq adabiyoti, xususan, she’riyati an’anaviylik negizida rivojlanib kelgan. (vazn, she’riy san’atlar va h.k.) Biroq ularni inson ruhiyati va tafakkurini yangilash, yuksaltirish istagi birlashtirib turishini to‘g‘ri e’tirof etadi. Nazar Eshonqulning ilhom haqidagi aql va tuyg‘uga asoslangan fikri ham diqqatga sazovor. Ijod psixologiyasiga oid jarayonlar, haqida to‘xtalib, insondagi aqliy idrokni tin olishi, ruhiy muvozanatning buzilishi, hissiy idrokning ramzlar og‘ushida qalqib chiqish holati hisoblangan ilhomni yozuvchi nigohi bilan ta’riflaydi. “Ilhom hissiy kechinmalarning junbushga kelishi va butun idrokni chulg‘ashidir”³. Mana shunday ilhomiy onlarda buyuk asarlar, o‘lmas ramzlar yaratilishini qayd etadi. Va aynan shu holatda inson mif yaratgan davrdagidek, atrofni timsollar orqali qabul qiladi degan psixoanalitik maktab tarafdorlari qarashlariga tayaniluvchi fikrni ilgari suradi. Psixoanalitiklar qarashiga suyangan adabiyotshunos olim Jabbor Eshonqul “Ilhom aql bo‘g‘ib qo‘ygan, aqliy faoliyat to‘xtatib qo‘ygan ong osti hislarining birdan yuzaga qalqib chiqishidir”⁴ deya ta’rif beradi.

Psixoanaliz ilmining asoschisi Z.Freyd ta’limotini chuqur o‘rganib, badiiy ijodni yozuvchining ongi ostida kechadigan g‘ayrushuriy holatlar bilan bog‘lab talqin etgan adabiyotshunos U.Jo‘raqulov “Psixoanaliz va badiiy ijod” nomli tadqiqotida bu haqda shunday fikrlarni bildiradi: “Psixoanaliz adabiyot yoki adabiy asar subyekti deyilganda ikki holatni diqqat markazida tutish lozim. Birinchi holatda adabiy asar

² Eshonqul N. Kitob bandasi .– Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 11.

³Eshonqul N. Kitob bandasi .– Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 14.

⁴ Eshonqulov J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini – Toshkent: Fan, 2011. – B. 82

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

muallifi ijodiy jarayonni (ilhom onlari)dagi murakkab ong osti oqimini o‘zida muhrlagan vosita o‘laroq namoyon bo‘ladi. Bunda muallif ham, asar voqeligi ham shu holat hukmi, boshqaruvi ostida harakat qiladi. Ayni holatning badiiy asar uchun universal mohiyat kasb etish-etmasligi ikki narsa bilan bog‘liq: a) muallifdagi haqiqiy ijod jarayonining davomiyligi, iste‘dod darajasi; b) asarning zamon nuqtayi nazaridan maydonga kelish ko‘lami, uning qaysi adabiy tur yoki janrda yozilganligi”⁵.

“Ilhom bepoyon ijodiy jarayonning bir parchasi, badiiy asar yaratish tizimidagi san’atkorning muayyan bir holati. Lekin ilhomsiz yaxshi asar yaratish mumkin emasligi ham ayon bo‘ldi”, – deb yozadi bu haqda olim⁶.

Demak, ilhom ijodkor qalbini o‘rtayotgan nido, dardni yuzaga chiqaruvchi, o‘zligini namoyon etuvchi, ijodiy zavq, tasalli beruvchi g‘ayrishauriy yaratuvchilik quvvatidir.

Muallifning go‘zallik, uni qabul qilish, iste‘dod, qobiliyat, ijodkor “men”i, shaxsi, adabiyotdagi “men”sizlik muammosi, yangilanish tamoyillar haqidagi mulohazalari o‘zbek va jahon adabiyoti namoyondalarining asarlari, adabiy-estetik qarashlari asosida bayon etiladi. (F.Kafka, Folkner, Kamyu, Prust, Sartlarning shaxssizlikka, qullikka asoslangan mafkuraga qarshi qilgan isyonlari, “men”ini saqlab qolish, so‘z va e‘tiqodga xiyonat qilmaslik maqsadida yolg‘izlikda ijod bilan mashg‘ul bo‘lib umr o‘tkazganliklari haqidagi biografik ma‘lumotlarni ham beradi. Shu asnoda mazkur ijodkorlar asarlaridagi absurd, yolg‘izlik, begonalashuv psixologiyasining yyetakchilik qilishi, ularning shaxsiy hayotiga aloqador bo‘lgani, hayotiy asoslari kitobxonga ma‘lum bo‘ladi.) Muallif nazdida adabiyot go‘zallik vositasi, go‘zallik bilan dunyoni qutqarish, unga da‘vat qilish demakdir. Uning asosiy va o‘zgarmas funksiyasi esa insonni har tomonlama tarbiyalashdir degan xulosaga keladi. “Adabiyot azaldan inson qalbini, ruhini yovuzlashishdan, xunuklashishdan, tubanlashishdan, toshga (bugungi kun tili bilan aytganda, temirga) aylanishdan, boshqacha aytganda, xudosizlashishdan himoya qilgan va bundan keyin ham shu vazifani bajarishda davom etaveradi”⁷. N.Eshonqulning adabiyotning azaliy katarsislik vazifasi haqidagi qarashlari aksiomologik ahamiyat kasb etadi. Ijodkor shaxsi uning ruhiy olami, sezimlari haqida Z.Freyd qarashlariga suyanib, “ijodkorning xayoli, ruhi, tafakkuri bezovta”⁸ligini, uni oddiy insonlar ko‘ra olmagan fojiani, boshqalar anglamagan va his etmagan go‘zallikni ko‘ra olishida, ibtidodan intihogacha inson ruhini tanazzuldan asrashga urinishi haqidagi qarashlarini

⁵Jo‘raqulov U. Hududsiz jilva. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 64.

⁶Umurov H. Badiiy ijod asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001. – B. 23.

⁷Eshonqul N. Kitob bandasi. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 26.

⁸Eshonqul N. Kitob bandasi. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 14.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

ifodalaydi. Darhaqiqat ijodkorlar olam va insonni yuksaltirishga, ruhiy-ma'naviy barkamollikka erishtirishga o'z iste'dodlarini sarflash qismatiga “mahkum”dirlar. Insonning mag'lub bo'lishdan ijod zavqigina qutqarib qolishi mumkinligiga to'xtalgan adib ijodkorga ijtimoiy buyurtma berilishi ijod zavqini so'ndirib ijodkorni oddiy kosibga aylantirishiga urg'u qaratadi. Muallifning ushbu fikrlariga qo'shilish mumkin. Boisi ilhomsiz, ijodiy zavqsiz tuyg'u va hissiz, ijtimoiy buyurtma asosida yaratilgan asarlar xuddi yolg'on kabi soxtakorlik, sxematizmga asoslanib, kitobxon qalb torlarini chertishga, uning his-kechinmalariga, ruhiyatiga ta'sir etishga o'zlik qiladi, badiiyati oqsaydi. Badiiy jihatdan yuksak asar yaralishi uchun iste'dod, ilhom, ijodiy zavq, dard, yuksak tafakkur va tahayyul, tuyg'u, hayotiy haqiqat, poetik mahorat muhim omil hisoblanadi. Muallif asar yozishda bu omillarni muvozanatiga to'xtalib, asarda ong birlamchilik qilsa, asar boshqotirmaga, tasavvur ustunlik qilsa, fantastikaga, kechinmalar ustunlik qilsa, sentimantillikka, hayotiy zalvor ustunlik qilsa, naturallikka qarab og'ib ketishini yozadi. “Dard, tasavvur, bilim, hissiyot, haqiqat, ong asarning qanotlaridir. Ularning muvozanatisiz asar ijodiy “parvoz” qilolmaydi.”⁹ Muallifning qarashlari ijodiy tajribadan o'tgan, mahoratli yozuvchining haqqoniy xulosalari ekanidan dalolat beradi. N.Eshonqul bugungi globalashshuv jarayonida ko'z qorachig'imizday asrashimiz lozim bo'lgan narsa ma'naviyatimiz ekanini to'g'ri ta'kidlaydi. Ma'naviyat masalasida G'arb va Sharqliklarni qiyoslar ekan, azaldan G'arbda ma'naviyat, Sharqda insoniy munosabatlar ustuvorlik qilishini yozadi. Oila, muhabbat borasida ikki qutb insonlarining turlicha munosabatlarini solishtirib, yuksak axloq, chin insoniylik Sharqliklarga xos ekaniga urg'u qaratadi. Shu o'rinda muallif G'arbdagi intellektual yutuqlarni kirib kelishiga qarshi emasligini, ular dunyoqarashni boyitib, saviyani o'stirishga, didning o'tkirlashishiga xizmat qiluvchi ijodiy jihatlar ekanini qayd etgan holda, turli xil vositalar asosida kirib kelayotgan mafkuramizga, milliy mentalitetimizga yot bo'lgan g'oya va makuralarga qarshi turishga chorlaydi. Bu xususda qat'iyat bilan **“millatning estetik saviyasi, didi davlat chegarasi kabi qattiq himoya qilinishi shart bo'lgan hudud”**¹⁰ – deb hisoblaydi. Nazar Eshonqulning fikr va fikrsizlik, kitob haqidagi qarashlari ham muhim ahamiyatga ega. Muallif nazdida kitob keng ramziy mohiyat kasb etib, ezgulikka, chin insoniylikka, kamolatga undaydigan har qanday shaxs, narsa va hodisalar ham aslida kitoblardir deydi. Savodsiz bo'lsada, qalbidagi jaholat uya qurmagan, milliy qadriyat, axloq va madaniyat sohiblari bo'lgan nuroniylardan ko'p hikmat o'rganish mumkinligini, ular ham jonli-tug'ma madaniyat va tug'ma kitob ekanini o'rinli uqtiradi. Mazkur qismda muallif kitob zulmatga qarab emas, quyoshga

⁹ Eshonqul N. Kitob bandasi .– Toshkent: Akademiya, 2022. – B. 28.

¹⁰ Eshonqul N. Kitob bandasi .– Toshkent: Akademiya, 2022. – B. 34.

"O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

qarab yashashni o'rgatuvchi omil, nurli xaloskor ekanini qayd etib, kitobxonlikni keng targ'ib qiladi. Zero, har qanday tahdid va tahlikalarga, jaholatga faqat ilm va ma'rifat, yuksak axloqiy madaniyat, intellekt bilan qarshi turish, hayotning tub mohiyatini ham kitob orqali anglash mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. BURKHANOVA, F. The Use Of Myths And Legends In Creation Of Story In Modern Uzbek Prose. *Int. J. of Aquatic Science*, 12(2), 2795-2800.
2. The methods of studying and analyzing classical poetic arts in literature lessons //Journal of critical reviews, 2020. – №5. – B. 1631-1641
3. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2015. –B.354.
4. Navoiy A. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G'.G'ulom, 1989. – B. 262.
5. Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: Akademnashr, 2010. –B. 400.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018. – B. 480 b.
7. Eshonqul N. Saylanma II.– Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 576.
8. Eshonqul N. Kitob bandasi.– Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 416.
9. Qalandarova, D. Z. (2024). EPIK JANRLARNING XORIJDA TADQIQ ETILISHI MASALALARI ("Alpomish" dostoni misolida). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 79-83.
10. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
11. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. *Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(10), 415-419.
12. Atabayeva, G. Z. (2024). NIZOMIY GANJAVIYNING "XAMSA" ASRIDAGI OBRAZLAR TAHLILI VA GENEZISI. 2-S'IN, 1-YIL YANVARYA 2024-GO-1-YIL KISHM, 12.
13. Burxanova, Feruza. "JAHON ADABIYOTI NAMUNALARI NAZAR ESHONQUL NIGOHIDA." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.20 (2024): 68-78.
14. Kadirova, M. (2022). The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 3(03), 1-6.
15. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
16. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go'zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.
17. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA'SIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.